

IOGANN SEBASTYAN BAX YARATGAN ASARLARI YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI

Abdurasulova Mavluda Sariboy qizi,

JDPI "Musika madaniyati fakulteti

Musika ta'limi yo'nalishi 303-guruh talabasi

Axrorova Munajat,

Ilmiy rahbar: JDPI Musika madaniyati fakulteti

Musika talimi kafedraasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk kompozitor I.S.Bax yaratgan asarlari yoshlar ongiga qanday ta'sir ko'rsayotganligi hamda, musika va san'atining kamolotimizdagi o'rni, kompozitor I.S.Baxning yaratgan asarlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Kompozitorlik, ta'lim tarbiya, kuy, musika, organ, prelyudiya, fantaziya, tokkata, fuga, kontata, oratoriya, messa, motet.

Buyuk kompozitor va organchi Iogann Sebastyan Bax tarix sahifalarida go'yo bronzadan quyilgan barhayot va ulug'vor timsol sifatida ko'z oldimizda gavdalanadi. Kompozitor ijodi asrlar davomida insoniyat tomonidan turlicha qabul qilingan. Baxning ijodiga bo'lgan qiziqish bizning asrimizning ikkinchi yarmida ancha kuchaydi. Jahon musika san'atida o'chmas iz qoldirgan daho kompozitorlar qatorida Iogann Sebastyan Bax nomi alohida o'rib egallaydi. Yoshlar ongida kompozitorning ijodiy bisoti nihoyatda ulkan bo'lib, mingdan ortiq turli janrlarga mansub asarlarni yaratganligi hamda, kompozitorning tarixdagi ilohiy go'zallik timsoli ekanligi, ijodiy yo'lining davomiyligi barcha-barchasi yoshlar ongida yaxshi ta'sir ko'rsatgan.

Buyuk nemis kompozitori mashxur organ ijrochisi ekanligi uning merosi san'atning barcha sohasiga yozgan asarlari hali hanuzgacha ko'klarda parvoz qilib tillarda doston bo'ladi. Bugun biz har bir avlod Bax musiqasida o'z vaqtida mos ravishda yangi narsalarni kashf etgannini ko'ramiz. Baxning eng yaxshi asarlarini

tinglaymiz va ijro etamiz. Iogann Sebastyan Bax musiqa asarlar yozadi lekin uning shuhrati birinchi navbatda vertuoz ijrochisi sifatida tarqalgan. Bax klaviaturaning ashaddiy muxlisi edi, ammo bastakor sifatida uning iste'dodini to'liq ochib berishga imkon bergan organ cholg'usi edi. Bax uni mukammal darajada o'zlashtirdi uning mahorati beqiyos. Bu haqiqatni uning raqiblari ham tan olishgan.

Iogann Sebastyan Bax organ musiqasi, uyg'onish davrining xor polifonik san'ati italyan va nemis skripka maktablarining bilimdoni va har taraflama mukammal inson bo'lgan. Bax hayoti bir tekis ketmagan og'ir hayoti davomida qiyinchilikka bardosh berib o'zining xarakteri aqliy tamoyillarini mustahkamlab qattiy hayotiy qarshiliklarga uchragan. Ba'zan tadqiqotchilar uni buyuk shaxs sifatida gavdalab, dunyo tashvishlaridan yuqori turgan ulug' bir timsol sifatida qayd etadilar. Biz yoshlar bunday buyuk kompozitor hayotiy kechinmalar yo'lida bo'lgan mashaqqati uning oltinga teng asarlarida biz o'zimizga xulosa tariqasida juda ham mukammal kechinmalarini olamiz.

Iogann Sebastyan Bax asarlariga to'xtaladigan bo'lsak hozirda AQShning YeL universiteti qoshidagi musiqiy maktab kutubxonasida o'z qo'li bilan yozgan nota kitoblarining qo'l yozmasi saqlanmoqda. Uning pergament muqovasida Baxning dasxati bitilgan bo'lib "Vilgelm Frideman" Baxning klavir kitobchasi deb yozilgan. Shuni aytish lozimki "Vilgelm Frideman"kompozitorning eng iste'dodli zurriyotlaridan biri bo'lgan bu kitobcha klavirda chalish bo'yicha o'z farzandi uchun mashq qilishga mo'ljallangan katta maktab bo'lib, avlod musiqachilari ko'plab ustoz va shogirtlari uchun qimmatli manbaga aylangan Iogann Sebastyan Baxning organ, orkestr, ansanbl, skripka, klavesen uchun yozgan asarlari xozirda juda ommalashgan yosh musiqachilar tomonidan ijro etiladi.

Bax ijodida organ muhim o'rin tutadi. U organning yangi imkoniyatlarini ochib berdi, organ prelyudiyasi, fantaziya, tokkata kabi janrlarni fuga bilan birlashtirdi. Organ uchun yozilgan "prelyudiya va fuga c-moll", "Fantaziya C-dur", "Tokkata va fuga", "Passakaliya" va boshqa asarlari jahon musiqasi xazinasidan o'rin olgan. Bax birinchi bo'lib klavir uchun konsert asarlarini yaratib, yangi uslub kashf etadi. (Syuitalar, "Xromatik fantaziya va fuga",

“Italyancha konsert”). Klavir musiqasi sohasida yangi “teng tovushqatorli” tizimning afzalliklarini “Yaxshi temperatsiyalangan klavir” to‘plami misolida namoyish qildi. Vokal dramatik musiqa janrlarida Baxning 300 ga yaqin diniy kontata, xoral va oratoriyalari (“Iogann bo‘yicha ehtiroslar”, “Matvey bo‘yicha ehtiroslar”, “h-moll katta messasi”, “Magnifikat”) alohida o‘rin tutadi. I.S.Bax nafaqat organ uchun balki klavir va klavesin uchun ham asarlarni yaratadi, Masalan, c-molldagi “Fransuzcha syuita”. Syuita 4 qismdan iborat. Allemanda, Kuranta, Sarabanda, Jiga. Bularning mavzulari mazmunida insoniylik, hayotdan zavqlanish, yuksak go‘zallikka intilish, shod-u xurramlik bilan dard-alam hissiyotlari o‘z aksini topgan.

Yana shuni alohida takidlab o‘tish kerakki, bir kitobda Bax haqida kichkina chaqaloq ham uning kuylarini baholay olishi haqida “3 oylik chaqaloq ham Baxni baholay oladi ” sarlovhasi ostidagi bo‘lgan voqeani o‘qib qoldim. Unda shunday deb yozilgan edi: “Sony” firmasining “Adzuki zavodi”da er-xotin ishchilarning ikki uch yoshli farzandlari uchun onalari iltimosiga ko‘ra bolalar bog‘chasi tashkil etilgan edi. U yerda bolalar qanday musiqani yoqtirishini aniqlash uchun tadqiqot o‘tqazildi. Kuzatishlar kutilmagan natijani berdi. Ikki-uch yashar bola uchun eng hayajonli musiqa Betxovenning “Beshinchi sonatasi” bo‘ldi. Kichkintoylar mumtoz musiqani eng qiziq deb topdilar, biz esa ulardan bu musiqani ma’lum bir uzoqlikda saqlaymiz. Mumtoz musiqa havaskorlari bo‘lgan yosh ota-ona o‘zlarining yangi tug‘ilgan chaqalog‘iga Baxning “Ikkinchi syuita”sini har kuni bir necha soatdan tinglatib borishgan. Uch oydan so‘ng u musiqa ohangiga mos ravishda harakat qilishni boshlagan. Musiqa tezlashganda uning harakatlari qisqaroq va jadalroq bo‘lar ekan. Musiqa tugaganida esa u norozilik bildirar ekan. Ko‘pincha bolaning jahli chiqsa yoki yig‘lasa ota-ona shu musiqani qo‘yib berishar va u darhol tinchlangan. Jaz musiqasini qo‘yib berishganida bola yig‘lab yuborgan ekan. Bu voqeani eshitib uch oylik bola ham Bax musiqasiga tushunishini bilish bilan birga go‘daklarning ajoyib musiqaviy hissiyoti, musiqaga qiziqishi borligiga amin bo‘ldim.

Bax ijodini o'rganar ekanmiz shuni guvohi bo'lishimiz mumkinki, ko'pgina yoshlar ham mana shunday mumtoz g'arb musiqalarini shunchaki tinglamasdan balki uni mazmun mohiyatini tushunib tinglasagina o'zi hamda yon atrofdagilariga juda ham foydali bo'lar edi.